Annotatsiya: Bugungi kunda tijorat banklarida transformatsiya jarayoni kechayotganligi, ayniqsa banklarning chakana xizmatlarni ko'rsatishda misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'lmoqda. Ya'ni, zamonaviy moliyaviy texnologiyalarga asoslangan chakana bank xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida yangi chakana moliyaviy xizmatlar joriy holati tahlil etilgan hamda tijorat banklarida chakana xizmatlarni rivojlantirish yo'llari xususida bo'lib, mavzuga doir taklif va xulosalar bayon etilgan. Shuningdek, chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'siri bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan chora-tadbirlarning ahamiyati hamda uni qo'llanilishiga oid muammoli vaziyatlar batafsil o'rganilgan.

Kalit so'zlar: chakana bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, transformatsiya, onlayn, plastik karta, mobil banking.

Abstract: Today, commercial banks are undergoing a transformation process, especially in the provision of retail services, unprecedented changes are taking place. That is, the development of retail banking services based on modern financial technologies is of great importance.

In this study, the current situation of new retail financial services in commercial banks is analyzed, and the ways of development of retail services in commercial banks are discussed, and suggestions and conclusions are presented. Also, the significance of the measures being taken in our country regarding the impact of retail banking services on the efficiency of commercial banks, as well as problematic situations related to its application, were studied in detail.

Key words: retail banking services, remote banking services, transformation, online, plastic card, mobile banking.

Аннотация: Today, commercial banks are undergoing a transformation process, especially in the provision of retail services by banks. That is, the development of retail banking services based on modern financial technologies is of great importance. This study analyzes the current state of new retail financial services in commercial banks and presents proposals and conclusions on the topic, focusing on ways to develop retail services in commercial banks. Also, the importance of measures taken in our country to improve the efficiency of retail banking services and problematic situations related to their implementation are studied in detail.

Ключевые слова: retail banking services, remote banking services, transformation, online, plastic card, mobile banking.

KIRISH

Bank tizimi bugungi kunda texnologik innovatsiyalarga yo'naltirilgan rivojlangan sohalardan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy lokomotivi hisoblanadi. Har qanday mamlakatning bank tizimi samarali ishlashi va jahon bank tizimi taraqqiyoti bilan bog'liq o'zgarishlarga tezkorlikda moslashishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining asosini belgilab beradi. Texnologik rivojlanishlar barcha sohalarda bo'lgani kabi bank tizimida ham yuqori o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Endilikda jahon bank tizimi ananaviy bank tizimidan elektron bankinga o'zgarmoqda. Internet banking ham maqsadli tizim sifatida maydonga chiqishi esa iste'molchilarga keng turdagi xizmatlarni taklif etish imkoniyatini berdi.

Hozirgi zamon jahon bank amaliyotining ko'rsatishicha, shu kundagi bozor munosabatlarining rivojlanishi va takomillashtirilishi sharoitida korporativ mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish sektorining rivojlanishi tobora katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston banklari o'z xizmatlarini yetarli darajada shakllantirishga erishdi. Biroq, banklar o'rtasidagi raqobat kurashi ularni qo'shimcha mijozlar jalb etish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasi va sifatini kengaytirish uchun yangicha yondashishga undamoqda.

Tijorat banklari mijozlarni kengroq qamrab olishda va ularga xizmat ko'rsatishda, filiallar va minibanklar ochish yo'li bilan emas, balki masofaviy bank xizmatlari samaradorligini oshirish asosida banklarning operatsion xarajatlarini tejash orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. Natijada, banklar raqobatbardoshligini oshiradi,



banklarda masofaviy bank xizmat turlarining diversifikatsiyalashuv darajasi oshadi, ya'ni bank mijozlari o'zi uchun qulay bo'lgan masofaviy bank xizmat turlaridan (internet-banking, «online banking», ayniqsa mobil-banking va boshqa turlaridan) foydalanishda tanlash imkoniyati yaratiladi (Z.T.Mamadiyarov, 2019).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida chakana xizmatlar joriy etishning ahamiyati va dolzarbligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar quyidagi olimlar T.M.Qoraliyev, O.Alikoriyev, Z.T.Mamadiyarov, M.M.Abduraxmanova, A.A.Azlarova, N.Karabayev, Z.Xudayberganova, X.Xudayarovalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Lekin, respublikamiz tijorat banklarida chakana xizmatlarni joriy etishga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy obyektiv va subyektiv, jumladan ijobiy va salbiy omillar hozirda kam o'rganilgan. Bundan tashqari, mavjud muammolarni ijobiy hal etish va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilmagan.

Shu bilan birga, hozirda respublikamiz bank tizimini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini va turlarini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3270 sonli qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturining ijrosi yuzasidan O'zbekiston Banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan birgalikda amaldagi bank xizmatlariga belgilangan tariflarni qayta ko'rib chiqilgan (PQ-3270, 2017).

Bank xizmati – bank operatsiyalarini o'tkazishni ortimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intellektual va professional bank faoliyatidir. Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir. Shu bilan bir qatorda bank xizmati tushunchasiga bank operatsiyalarini optimallashtiruvchi ham muhim element sifatida kiritildi, chunki banklar xizmatning u yoki bu turini tanlashda ushbu operatsiyaning samaradorligi, qulayligi va sifatligi darajasiga e'tibor berishlari va ushbu ko'rsatkichlar uning raqobatbardoshligini ta'minlash asosi hisoblanishini his etmoqlari lozim.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko'rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilmoqda, ularning turlari kengaytirilmoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik kengayib borishi maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommaborligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3620-sonli qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturining ijrosi yuzasidan, aholi uchun valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlari joriy etildi.

Bugungi kunda tijorat banklarimiz oldida chakana bank xizmatlari ommabobligini oshirish va ushbu bank xizmatlarini yanada takomillashtirish asosiy vazifa ekan, ushbu maqsadga erishishda bank faoliyati quyidagi yo'nalishlarga qarab faoliyat olib borilishi lozim:

- chakana bank xizmatlarini yetkazib berishni jarayonini bir standartga keltirish va avtomatlashtirish;
- zamonaviy sotishni joriy etish strategiyasini ishlab chiqish;
- chakana bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish va ularning sifatini oshirish;
- aholiga banklar tomonidan joriy davrda ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini modifikatsiya qilish orqali, yangi bank xizmatlarini yaratish odatda joriy xizmatlarini jozibadorligini oshirish maqsadida ularni ko'rsatish shartlarini o'zgartirish orqali amalga oshirilishi mumkin (X.A.Xudayarova, 2022).

Bunday shartlarga quyidagilarni kiritish mumkin: foiz stavkalarini, depozit va kreditlar muddatini o'zgartirish orqali. Shuningdek taminot turlarini o'zgartirish orqali ham amalga oshirish mumkin.

Shu bilan birga, bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklarni o'z oldiga maqsad qilib olgan.

Bank xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlardan "bank xizmati" va "bank mahsuloti" o'zaro bir biridan ajratiladi. O.Ortiqov tomonidan "bank mahsuloti" – alohida ko'rinishdagi bank faoliyatining mijozlar talabini qondirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan bank xizmatlari va operatsiyalarining majmui deb ta'rif berilgan (O.Ortiqov, 2009).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3270-sonli qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturining ijrosi yuzasidan O'zbekiston Banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan birgalikda amaldagi bank xizmatlariga belgilangan tariflarga muvofiq 187 ta xizmat turi ko'rib chiqilib, 63 ta xizmat turi bepul amalga oshirilishi, 86 ta xizmat haqi 15 foizdan 95 foizgacha arzonlashtirilishi, shuningdek xorijiy valyutada o'rnatilgan 7 ta xizmat haqi milliy valyutaga o'tkazilishi yuzasidan kelishuvga erishildi (PQ 3270, 2017).

Avvalambor "bank xizmati" va "bank operatsiya" larni bir biridan farqlab olish zarur deb hisoblaymiz. "Bank operatsiyalari" atamasi bank biznesini yuritishga taalluqli. O.Alikoriyev ushbu kategoriya bank sohasi amaliyotidagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi, chunki bank operatsiyalarini bajarishda yuzaga keladigan munosabatlar bank faoliyatining mohiyatini tashkil etadi (O.Alikoriyev, 2014).



“Bank xizmati” tushunchasining ta’rifi haqida gapirishdan oldin uning eng yaqin va ancha kengroq turi, ya’ni “xizmat” tushunchasini ko’rsatib o’tish lozim. “xizmat” tushunchasi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin etilgan. Ba’zi holatlarda ushbu tushuncha muayyan maqsadlarga erishishga mo’ljallangan funktsiya sifatida ochib berilsa, boshqalarda muayyan sifatlar to’plamiga ega obyekt sifatida qaraladi.

Bank xizmatlarini rivojlanish bosqichlarini ham asosan 4 ta evolyutsion jarayoni mavjudligi borasida tadqiqotlar o’tkazilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Bank xizmatlarini rivojlanish evolyutsiyasi

Bosqichlar	Yillar	Tadqiqotchilarning asosiy yo’nalishari	Avtorlar
1-bosqich. Tug’ilish bosqichi	1960-1970-yillar	Moliyaviy xizmatlarda banklar faoliyati	<i>G.Brayan, X.Duglas, Sh.Derey, D.Revell</i>
2-bosqich. Davomiylik bosqichi	1980-YILLAR	Ba’zi mamlakatlarning kredit va moliyaviy tizimlarining faoliyati, globallashuvning ta’sirini yuzaga kelishining ehtimoli va bank kapitalining bank xizmatlari bozoriga joylashtirilishi, shuningdek, bank xizmatlarining globallashuvida bank xizmatlarining sifatini shakllantirish xususiyatlarini o’rganish.	<i>O.Donnel, Ye.Ballarin, V.Malras, F.Derek</i>
3-bosqich. Zamonaviy bosqich	1990-2000-yilgacha	Mijozlarga integratsiyalangan bank xizmatlari strategiyasini qayta ko’rib chiqish va “moliyaviy supermarket” va “moliyaviy butik” strategiyasiga o’tish hamda yuqori darajada ixtisoslashgan banklardan universallarga o’tish	<i>K.Fabri, D.Djente, D.Sinki, P. Rouz</i>
4-bosqich. Innovatsiyalarga asoslangan bosqich	2000-yildan keyingi davrlar	Banklarning marketing faoliyati va bank xizmatlarining raqobatbardoshligini baholash, xizmat ko’rsatish sohasidagi sifat masalalari bo’yicha nazariy asoslarni va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, bankning raqobatda ustunliklarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan moliyaviy boshqaruvning konsentratsiyasi.	<i>A.Lange, D.Levellin, B.Marua, S.Matyur, X.Shefer, E.Shtikel, B.Sh. Xefferman, Dj.K. Van Xorn, Dj.Key, E.Dj.Dollan, F.Kotler, M.Rorter, P.Rouz, S.Deyvis</i>

Manba: Muallif tomonidan tuzildi.

O.I.Lavrushen bank operatsiyalariga bank funksiyalarining amalda namoyon bo’lishi sifatida, bank xizmatlariga esa mijozning muayyan ehtiyojlarini qondiruvchi bir yoki bir nechta bank operatsiyalarini o’tkazish sifatida qaraydi (O.I.Lavrushen, 2013).

Umuman olganda, ko’rgina olimlarning “bank operatsiyasi” va “bank xizmati” tushunchalarini chegaralash muammosi bo’yicha fikr-mulohazalari “bank xizmatlari”ga “bank operatsiyalari”ning bir turi sifatida qarashga borib taqalmoqda. Shu bois O.I.Lavrushen “operatsiyalar pul shaklida bajariladi, takror ishlab chiqarishning turli farazlaridagi pul oqimlarini aks ettiradi, bevosita banklar orqali amalga oshiriladi”degan fikri bunga yaqqol misol bo’ladi.

O’z navbatida, xorijlik olimlar bank operatsiyalariga bank xizmatlarining bor yo’g’i bir turi sifatida qaraydilar. Xususan, Amerikalik iqtisodchi Rouz P.S. ilmiy ishida bank xizmatlariga pul zaxiralarini boshqarish, iste’mol krediti, naqd pul oqimlarini boshqarish, lizing pensiya rejalarini sotish kabi faoliyat turlarini kiritgan. Bank xizmatlariga iste’mol krediti va mijozlarni kreditlashning kiritilishi kreditga korporativ mijozlarga xizmatlar sifatida qarash kabi g’arb amaliyotidagi tendensiyaning qabul qilinishiga asoslangan (Rouz P.S., 1995).

Nemis iqtisodchilari bank operatsiyalariga bankning barcha faoliyat turlarini kiritishadi, mijozga ko’rsatiladigan bank xizmatlariga esa bank faoliyatining bir turi sifatida qarashadi.

P.S.Rouzning fikricha, bank xizmatining qulayligi va uning turli moliyaviy axborot ko’chib yurishi bilan bog’liqligi bank xizmatining asosiy farqlanuvchi xususiyati hisoblanadi. Bank operatsiyalari esa u yoki bu ko’rinishdagi pul mablag’larining turlicha ko’chish shakllariga o’xshatiladi (P.S.Rouz, 1997).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lmoqdaki, banklarning shakllari, raqobat va boshqaruv usullari o'zgarib bormoqda, bank operatsiyalari doirasi kengaymoqda. Xususan, raqobatda omon qolish uchun banklar bank xizmatlarining barcha turlarini o'zlashtirishi kerak, ya'ni bitta hisoblagichdan mijozlarga xizmat ko'rsatishning bir turini yaratishi kerak. Bank operatsiyalarining diversifikatsiyasi xorijiy mamlakatlarda banklarni moliyaviy insitutlar deb atashga olib keldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab banklar mijozlarga moliyaviy xizmatlarning barcha turlarini bir manbadan olish imkoniyatini berishadi – "moliyaviy supermarket" bo'lish istagi yuqoridir. Buning uchun risklarni boshqarish yetarli emas, har bir mijoz bilan samarali ishlash mexanizmlarini yaratish asosiy vazifalar sifatadi qo'yilishi lozim.

Iqtisodchi Z.T.Mamadiyarov tadqiqotiga asosan, masofaviy bank xizmatlari – bu banklarning mijozlariga taqdim etayotgan xizmatlarini bankda mijozlari bilan yuzma-yuz emas balki, masofadan zamonaviy bank texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi tushuniladi. Tadqiqotchi fikriga ko'ra, bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi birinchidan, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi, ikkinchidan bank operatsiyalarining avtomatlashtirilganligi bilan bog'liqdir (Z.T.Mamadiyarov, 2019).

T.M.Qoraliyev esa bank operatsiyalarini depozit-ssuda, schyotlarni yuritish va hisob kitoblarni amalga oshirish, maslahat va vositachilik, faktoring, lizing operatsiyalariga taqsimlaydi (T.M.Qoraliyev, 2007).

Ilmiy tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda fikrimizcha "bank xizmati", "bank mahsuloti", "bank operatsiyasi" tushunchalari o'rtasida faqli jihatlar mavjud bo'lib, ular bir birini to'ldiradi va o'zaro aloqador, bog'liqligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Bank xizmatlari tushunchalariga O.Alikoriyev talqini (O.Aliqoriyev, 2010)

Bank xizmatlari turini yaratish tamoyillari iqtisodchi M.M.Abduraxmanova tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra bank xizmatlari bozorida iste'molchilarni talablarining xususiyatlari va takliflari asosida bo'lishi tavsiya etiladi. Tadqiqotda bank xizmatlari bozorida segmentlash usuli keng ilmiy tadqiq etilgan. Tabaqalashtirish usulida bank xizmatlari iste'molchilarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarga asosan guruhlariga ajratish asosiy yo'nalish sifatida tavsiya etilgan. Asosiy ilmiy yanglik sifatida banklarda CRM (Customer Relationship Marketing / Management) – bu mijozga yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslangan biznesni doimiy rivojlantirish bo'yicha biznes – strategiyani shakllantirish orqali mijozlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash va ma'lumotlarni operativ yangilab turilishini ta'minlovchi maxsus vosita va dasturiy ta'minotlardan foydalanish tavsiya etigan (M.M.Abduraxmanova, 2014).

Markaziy bankning strategik maqsadli yo'nalishlaridan biri sifatida to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari ham belgilanganligi iqtisodchi A.A.Azlarova tadqiqotlarida keltirib o'tilgan (A.A.Azlarova, 2018).

Tijorat banklari tomonidan valyuta bozori instrumentlaridan foydalangan holda forward operatsiyalarini kengaytirish hamda valyutaviy svop bo'yicha mavjud cheklavlarni olib tashlash yo'li bilan tashqi savdoga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmini oshirish taklifi F.Axmedov tadqiqotlarida asoslangan. Tadqiqotda



O'zbekiston Respublikasi banklarining tashqi savdoga xizmat ko'rsatish amaliyotida forfeyting kreditlash shaklining mavjud emasligi asoslangan bo'lib, respublikada mazkur amaliyot asosiy kamchilik sifatida e'tirof etilgan. Shunga ko'ra tijorat banklari kafolatiga asoslangan forfeyting kreditlari berish tartibini joriy etish lozimligi asoslab berilgan (F.Axmedov, 2018).

Tijorat banklarini masofaviy boshqarish usullarini va xizmat ko'rsatishni joriy etish jahon amaliyotidagi asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra aktivlarni sekuritizatsiyalash, avtomatlashtirish, "New Privat" hamda masofaviy boshqaruv innovatsion usullarini aktiv operatsiyalarga yo'naltirish orqali boshqarishning innovatsion uslubi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan "New Privat" usuli orqali bank tizimiga zamonaviy xizmat turlari kiritish imkoniyatlari kengayadi. Yangi xizmatni joriy etish orvali mijozlarni jalb etish va bank daromadlarini ko'raytirish imkoniyatlari yaratiladi. Ushbu tizim asosan yirik mijozlarni jalb etish maqsadida joriy etiladi. Banklar yirik mijozlarning mablag'larini boshqarishda moliyaviy ko'makchi vazifasini bajaradi va u orqali foyda olish imkoniga ega bo'lishi tadqiqotda asoslangan.

Tijorat banklari barqarorligini boshqarish mexanizmi, strategiyalari, uning huquqiy-me'yoriy asoslari takomillashtirilgan va ularga xos innovatsion xizmat turlarini joriy etish asoslab berilgan. Tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarining xizmat turlarini joriy etishning tajribalari asosida "kontrakt banklar", bank mahsulotlari va xizmatlarining yangi turlarini yaratish va ularni diversifikatsiyalash imkoniyatlari aniqlangan. Risklarni baholash va banklarning samaradorligini oshirishga qaratilgan DEA (Data Envolore Analysis) va CAMEL (Carital, Assets, Management quality, Earnings and Liquidity) kabi yangi usullardan foydalanish taklif etilgan.

Tijorat banklarining kapital bo'yicha renkingini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida yangi interaktiv bank xizmatlarini joriy etish tartibi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda mijozlarning axborotlar darajasini oshirish hamda majburiy chop etish uchun hisobot sxemasini aniqlashtirish asosida bankning axborot bazasini takomillashtirish lozimligi e'tirof etiladi. Bunda jismoniy shaxslar qo'yilmalari va korrespondent hisoblari va kassa, davlat qimmatli qog'ozlari, kreditlar, pul mablag'lari bo'yicha aylanmalar to'g'risidagi axborotlar doimiy qabul qinuvchilar sifatida tijorat banklari faoliyatini obyektiv baholash imkoniyatini kengaytirishga asoslanadi.

Yangi bank xizmatlarini bozorga kiritishda "kraudsorsing" innovatsion marketing uslubiyotidan foydalanish yo'llari ko'rib chiqilmoqda. Kraudsorsing konsepsiyasining ahamiyatli jihati nafaqat yangi bank xizmatlarini yaratish, balki mavjud bank xizmatlarining hayotiylik davrini yanada uzaytirish va ularning umumiy daromadlik darajasini oshirish imkoniyatini berishi hisoblanadi. Tijorat banklari mijozlar bilan muntazam muloqot va ularning talab-xohishlariga maksimal moslashish natijasiga aynan kraudsorsdan foydalanish hisobiga erishadi.

Kraudsorsing texnologiyasi va uni tashkil etish o'z oldiga qo'ygan maqsadi hamda mijozlardan olingan real taklif va tavsiyalarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Kraudsorsing jarayoni natijasi – bu yangi bank xizmati turi yoki shakli, mijozlar uchun ular xohlagandek qulaylik va tezlik, bank tashkiloti uchun esa – qo'shimcha talab, foyda va imidjning oshishi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida yangi moliyaviy xizmatlarni ishlab chiqishning huquqiy va institutsional asoslarini isloh qilish jarayonlari evolyutsiyasi to'rt bosqichga bo'linadi: tayyorlov, moslashuv, institutsionallashtirish va yangi bank tizimini rivojlantirish.

Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va rivojlantirish borasidagi nazariy - konsertual yondashuvlar, masofaviy bank xizmatlari tizimining turlari va xususiyatlari, O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning huquqiy asoslarining shakllanishi va takomillashuv bosqichlari, tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining ishlash mexanizmi, bank tizimida masofaviy bank xizmatlari amaliyotining tahlili asosida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ular bo'yicha gipotezalar shakllantirilgan hamda ularning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga ta'siri ekonometrik tahlil qilingan. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank tizimining berilgan bosqichdagi kredit muassasalari strategik yo'nalishidir. Bunda mijozlarga maksimal qulaylikni ta'minlovchi internet tizimlaridan internet-banking, mobil-bank tizimlaridan WAR-banking modellaridan samarali foydalanish maqsadlidir.

Yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish texnologiyasi yangi moliyaviy xizmatlarni ishlab chiqishda yoki mavjudlarini modifikatsiyalashda yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori PQ-3270.



3. Abduraxmanova M. Bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlantirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. TDIU. Toshkent. 12 bet.
4. Azlarova A.A. O'zbekiston bank tizimida marketing faoliyatini takomillashtirish istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral. 6 –bet. //www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/Azlarova_Abdurakhmonova.rdf
5. Alikoriyev.O. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari. Toshkent O'zbekiston. 22-bet
6. Дихтяр В.И. (2007). Банковские услуги предприятию: базовые операции. М.: РУДН. - 338 с.
7. Qoraliyev T.M. va boshqalar (2007). "Pul kredit orqali muvofiqlashtirish". Darslik. Toshkent. 166 b.
8. Лаврушин О.И. (2013) Банковское дело: современная система кредитования : учеб. пособие. М. : КНОРУС. ст-41.
9. Mamadiyarov Z.T. (2019) Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. TDIU. Toshkent – 2019, 56 bet.
10. <https://hamkorbank.uz/uz/rhysical/credits/iste-mol-kreditlari/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
